

YO'L-TRANSPORT HODISALARINING KELIB CHIQISHIDA AVTOMOBIL YO'L EKSPERTIZASINING ASOSIY MASALALARI

Isoxanov Utkir Ibadullayevich

(Toshkent davlat transport universiteti kata o'qituvchisi)

Turdibekov Salohiddin Qodirovich

(Toshkent davlat transport universiteti kata o'qituvchisi)

Abdusamatov Erkinjon Xalim o'g'li

(Toshkent davlat transport universiteti assistenti)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yo'lning aybi bilan bog'liq bo'lgan yo'l transport hodisalarini yo'lning qanchalik sababli ekanligini va yo'lga nisbatan qilingan xulosalarni o'rganib va tahlil qilib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *yo'lning o'tuvchanlik samaradorligi, xizmat ko'rsatish darajasi, yullarni modellashtirish usullari, yo'lning texnik xolati, YTXga sababchi, xulosalar.*

Abstract: *In this article, road traffic accidents related to the fault of the road are studied and analyzed to what extent the road is the cause and the conclusions made about the road.*

Key words: *road permeability efficiency, level of service, road modeling methods, technical condition of the road, causes of accidents, conclusions.*

Respublikamizda avtomobillashtirish jarayoni tez rivojlanayotgani yo'l-harakat havfsizligini ta'minlash masalasini dorlzarb qilmoqda. Bu masalani hal etishda huquqiy mexanizmlar sezilarli o'rin egallaydi. Yo'l-transport hodisalari holatlarini belgilashda mahsus bilimlardan samarali foydalanish alohida ahamiyatli. Shuning uchun sud-avtotexnika ekspertizalar ish holatlarini belgilash va odil sudlovni amalga oshirishda muhim dalil vositasi hisoblanadi.

Yo'l-transport hodisalari asosan quyidagi turlarga bo'linadi:

- piyodalarni urib ketish;
- transport vositalarining to'qnashuvi;
- transport vositalarining ag'darilishi;
- qo'zgalmas to'siqlarni urib ketish;
- nomexanik transport vositalarini urib ketish;

- transport vositalaridan yo'lovchilarning yiqilishi. Transport vositasining texnikaviy holatini, voqea sodir bo'lgan joydagi yo'l vaziyati va voqea ishtirokchilarining harakatini, shuningdek, voqea yuz berishiga sababchi bo'lgan holatlarni belgilab beruvchi, yo'l-transport hodisasining mexanizmi (jarayoni) bilan bog'liq bo'lgan haqiqiy ma'lumotlar avtotexnika ekspertizasi tadqiqotining predmeti hisoblanadi.

Sud-avtotexnika ekspertizasi o'z o'rnida bir necha turga bo'linadi. Har bir turi o'ziga hos predmeti, obyektlari, tadqiqot usullari va ekspertizaga taqdim qilinishi zarur

bo'lgan materiallar to'plami bilan ajralib turadi. Shularni hisobga olib sud-avtotexnika ekspertizasi quyidagi turlariga bo'linadi:


1. Yo'l-transport hodisasi holatlari ekspertizasi.
2. Transport vositasining texnikaviy holati ekspertizasi.
3. Transport vositasi va yo'l-transport hodisasi joyidagi izlarni (transport-izshunoslik) ekspertizasi.
4. Avtomobil yo'llari ekspertizasi.

Barcha turdagi sud-avtotexnika ekspertizalari uchun quyidagilar tadqiq qilinadigan obyektlar jumlasiga kiradi:

- yo'l-transport hodisasi ishtirokchisi bo'lgan avtotransport, elektrotransport, traktor va boshqa o'ziyurar mexanizmlar (moslamalar);
- yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan yo'l, dala, hovli, shuningdek transport harakatlanadigan boshqa joylar;
- yo'l-transport hodisasi bilan bog'lik, bo'lgan ashyoviy dalillar va jinoiy ish hujjatlari (materiallari).

Avtotexnika sohasidagi ekspertlar tomonidan, shuningdek transport vositalari va ularning ehtiyot qismlarini baholash ekspertizasi ham o'tkaziladi. Ushbu ekspertiza hususan avtotexnika ekspertizasi bo'lmasa ham, uni o'tkazish uchun avtomobil texnikasi sohasida bilimlar salmoqli o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida 2022 yilda 9 902 ta yo'l transport hodisalar ro'y bergan, buning natijasida 2 086 ta odam halok bo'lgan va 9 606 kishi jarohatlangan. Shundan Yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bo'yicha eng ko'p belgilangan tezlikka rioya qilmaslik – 15,8%, yo'lni ikkiga ajratuvchi to'siqlar o'rnatilmaganligi 13,6%, piyodalar harakatini cheklovchi to'siq (panjara)lar o'rnatilmaganligi – 11,6%, haydovchining tajribasizligi – 10,6% va piyodalar o'tish joylarining tashkil etilmaganligi - 10,3 %ni tashkil qilmoqda.



1-rasm. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasida sodir bo'lgan yo'l transport hodisalarini tahlili

Qayd etilishicha, 2022-yilning yanvar—oktabr oylari davomida 7 ming 636 ta yo'l transport hodisasi sodir etilgan. Shundan 1 ming 931 tasi o'lim bilan yakun topgan. Aynan yo'l infratuzilmasi to'g'ri tashkil etilmagani oqibatida 3 ming 980 ta yo'l transport hodisasi sodir bo'lgan. Yo'llarning talabga javob bermasligi yo'l-transport hodisalarining 52 foizini tashkil etadi.

“Bu kabi holatlar asosan inson omili bilan bog'liq 3 ming 656 ta yo'l transport hodisasi sodir etilgan. Bunda haydovchilarning belgilangan tezlikka rioya etmasligi, haydovchining tajribasizligi, piyodalarga yo'l bermaslik, svetofor va yo'l belgilariga rioya qilmaslik kabi holatlar ham sabab bo'lgan.

Shuningdek, aynan inson omili bilan bog'liq 3 ming 656 ta yo'l transport hodisasi sodir etilgan. Bunda haydovchilarning belgilangan tezlikka rioya etmasligi, haydovchining tajribasizligi, piyodalarga yo'l bermaslik, svetofor va yo'l belgilariga rioya qilmaslik kabi holatlar ham sabab bo'lgan.

Yo'l-transport hodisalarining kelib chiqishiga yo'l sharotini ta'sir etuvchi omillarini o'rganish va aniqlashdan iborat.

Avtomobil yo'l ekspertizasi obyektlariga - yo'l, yo'l belgilari, yo'l bo'yicha meyoriy hujjatlar, yo'ldagi qurilmalar, to'siqlar va x.k. kiradi.

Avtomobil yo'l ekspertizasi quyidagi asosiy masalalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazadi:

- yo'ning soz yoki nosozligi, yo'ning holati mavjud me'yoriy hujjatlarga mos kelish yoki kelmasligini aniqlash;

- yo'l belgilarining meyorlarga mos o'rnatilganligini belgilash;

- yo'ldagi mavjud qurilmalarning joylashganligini yo'l harakat havfeizligi qoidalarga mos kelishini aniqlash va x.k.

Ushbu ekspertiza oldiga quyidagi savollar qo'yilishi mumkin:

Voqea sodir etilgan joyda yo'ning qatnov qismi soz holatdami?

Voqea sodir etilgan joyda yo'ning qatnov qismida nosozliklar bormi, agar bo'lsa ular qachon hosil bo'lgan?

Yo'l belgilari qo'yilishi voqea sodir etilgan joyda to'g'ri tashkil etilganmi?

Aniqlangan yo'ning nosozligi qaysi KMKning (SNIp) qaysi talablariga mos kelmaydi?

Yuqoridagi masalalarni hal etish uchun ekspertga voqea joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi, shuningdek tegishli me'yoriy hujjatlar taqdim etilishi kerak. Zarur hollarda voqea joyi ko'zdan kechirilishini tashkil etish lozim.

So'ngi yillarda jihozlangan harakatliklar keng ko'lamda foydalanib kelinsada, rivojlanayotgan davlatlarda, shu qatori yurtimizda harakatlanishli yo'llarni qurishda aniq YTHlarda yo'ning texnik xolati inobatga olinmaydi va yo'ning texnik xolati ekspertizasini o'tkazishlar, YTH vaqtida yo'ning xolatining qanchalik YTH bo'lishi inobatga olinmasdan kelingan va yo'ning texnik xolati ekspertizalari va tadqiqotlarga kiritilmagan. Ushbu turdagi yo'ning texnik xolati ekspertizalari yo'lga qo'ish va yo'ning xolati qanchalik aybi borligi, xaydovchining YTH kelib chikishiga sababchi bo'lganligi aniqlash va to'g'ri xulosa olishga katta imkoniyatlar eshigi ochilar edi.

Maqolaning maqsadi YTHlarda xaydovchilarnig qanchalik sababchi bo'lganligi yoki yo'l texnik xolati (yo'l ko'rinishi, yo'ning sozligi, yo'ning qoplamasning sozligi, yo'ldagi o'rnatilgan harakatni boshqarishdagi texnik vositalar va xakozalarni) aniqlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Судебная автотехническая экспертиза. Ч.2.-М.1980 г.- 491 с.
2. Приминение дифференцированных значений времени реакции водителя в экспертной практике. - М. 1987 г.
3. Использование в экспертной практике экспериментально-расчетных значений параметров торможения автотранспортных средств. ВНИИСЭ.1995 г.
4. TS Qodirovich, US Shavkat o'g'li (2023). PIYODALAR KIYIMINING RANGI YO 'L-TRANSPORT HODISALARINING OLDINI OLIHDA QANDAY AHAMIYATGA EGA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (19) 987-992.

5. TS Qodirovich, US Shavkat o'g'li (2023). O 'ZBEKISTON MILLIY AVTOSANOATDA ISHLAB CHIQUARILGAN YENGIL AVTOTRANSPORT VOSITALARINING MARKIROVKA BELGILARINI ANIQLASH USULLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (19) 980-986.

6. SS Xusanovich, RZ Niyazmetovich, NJ Shavkat o'g'li (2023). CHORRAHADA TRANSPORT VOSITALARIDAN CHIQUADIGAN CHIQUINDI GAZLAR MIQDORINI KOMPYUTER MODELLASHTIRISH ORQALI ANIQLASH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (19) 540-546.

7. OI Inoyatovich, AE Xalim o'g'li, TS Qodirovich (2023). AVTOMOBIL YO 'L EKSPERTIZASI BO 'YICHA YA'NI YO 'L SABABLI SODIR ETILGAN YTH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (18) 442-446.

8. У Исоханов, С Турдибеков, Э Абдусаматов (2023). ЕНГИЛ АВТОМОБИЛЛАРДА КЎРИНМАС ХУДУД ДА ЙЎЛ ТРАНСПОРТ ҲОДИСАЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРАЛАРИ. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY 1 (6) 92-95.

9. ШХ Шерматов, ШИ Абруев, ЭХ Абдусаматов (2022). ВЛИЯНИЕ ДОРОЖНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ НА ПЕШЕХОДНОЕ ДВИЖЕНИЕ НА ПЕРЕСЕЧЕНИИ АХАНГАРАНСКОЙ ПАРКЕНТСКОЙ И ОБЪЕДИНЕННОЙ ДОРОГ. Экономика и социум 12-1 (103) 1089-1096.

10. ШК Хакимов, РГ Саматов, СС Ражапова, ДА Абдураззакова, Э Абдусаматов, Ш Абруев (2022). СНИЖЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА ВЫХЛОПНЫХ ГАЗОВ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ ПУТЁМ КОМПЬЮТЕРНОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПЕРЕКРЕСТКА. Экономика и социум 9 (100) 715-724.

11. ШХ Шерматов, ШИ Абруев, ЭХ Абдусаматов, НХ Турсунов, ЖА Чориев (2022). МЕТОД ОПРЕДЕЛЕНИЯ ГОРЯЧИХ ЗОН ГОРОДСКИХ ДОРОЖНО-ТРАНСПОРТНЫХ ПРОИСШЕСТВИЙ. Экономика и социум 12-1 (103) 1097-1104.